Soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasidagi munosabatlarning yangi tizimi sharoitida soliq nazorati .....	1048
<b>Rajabbaeva Dildora Zakirovna, Aripova Aziza Alisherovna</b>	
Boshqaruv jarayonlarini tashkil etishning xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	1053
<b>Jo'rayeva Niginaxonim Xursand qizi</b>	
Jahonda eksportni qo'llab-quvvatlash amaliyoti.....	1057
<b>Xudoynazarov Sherzod Ismoilovich</b>	
Raqamli moliyaviy texnologiyalarni korxonada darajasida joriy etish orqali moliyaviy barqarorlikka erishish strategiyasi .....	1063
<b>Soibov Nozimbek Faxridin o'g'li</b>	





В статье переосмысливается понятие финансовой устойчивости в современных экономических условиях и аргументированно показаны преимущества цифровых технологий в её обеспечении. В частности, на практических примерах раскрыта роль электронных платёжных систем, блокчейн-технологий, ERP (Enterprise Resource Planning) и CRM (Customer Relationship Management) систем в снижении финансовых рисков и обеспечении прозрачности.

В завершении исследования подчёркивается, что интеграция цифровых финансовых технологий в систему управления предприятием не только упрощает внутренние процессы, но и способствует повышению эффективности взаимодействия с инвесторами, кредиторами и другими заинтересованными сторонами. Представленные научно обоснованные предложения и рекомендации могут служить важной теоретической и практической основой для укрепления финансовой устойчивости предприятий.

**Ключевые слова:** Цифровые финансовые технологии, финансовая устойчивость, FinTech, корпоративные финансы, цифровая трансформация, финансовый менеджмент, искусственный интеллект, большие данные, блокчейн-технологии, электронные платёжные системы, финансовая эффективность, ERP-система, CRM-система.

## KIRISH

COVID-19 pandemiyasi va harbiy holat davrida mamlakatda raqamlashtirish jarayonida tub o'zgarishlar yuz berdi. Bugungi kunda dunyo amaliyotida raqamlashtirish bo'yicha ko'rsatkichlar ishlab chiqilib, reytinglar tuzilmoqda. Ularga quyidagi indekslar kiradi: raqamli iqtisodiyot (BCG, e-Intensity), raqamli evolyutsiya (DEI), raqamli iqtisodiyot va jamiyat (DESI), jahon raqamli raqobatbardoshlik indeksi (WDCI) va global kiberxavfsizlik indeksi (GCI). Har qanday mamlakatda raqamli transformatsiya kapitallashuv, farovonlik va fuqarolik jamiyati farovonligini oshirishga xizmat qilishi mumkin. Hukumatlar ushbu transformatsiyani qo'llab-quvvatlab, raqamli xavfsizlik va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish texnologik taraqqiyotning ajralmas qismi bo'lishi kerakligini anglamoqdalar.

Iqtisodiy jarayonlarning globallashuvi zamonaviy fuqarolik jamiyatining rivojlanishida muhim tarkibiy qismga aylanmoqda. Moliya sektori esa mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining tayanch ustunidir. Aholi hayot sifatini yaxshilash va iqtisodiy o'sishni ta'minlashni o'z oldiga maqsad qilgan davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining muvaffaqiyati moliyaviy resurslar qanday shakllantirilayotgani, taqsimlanayotgani va ishlatilayotgani, hamda real iqtisodiyot, fan, ta'lim va madaniyatni moliyalashtirish mexanizmining qay darajada samarali ekaniga bog'liq.

Raqamlashtirish – bu zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning umumiy tendensiyasidir va u iqtisodiy hamda ijtimoiy hayotning barcha sohalarini qamrab olmoqda. Sanoat tarmog'i faol ravishda "Sanoat 4.0" texnologiyalarini joriy qilmoqda, iste'molchilar esa internetdan ajralmas hayot kechirishmoqda. Zoom, Skype va Google Meet platformalaridan foydalanilgan holda onlayn uchrashuvlar va mashg'ulotlar kundalik faoliyatning bir qismiga aylangan. Raqamli texnologiyalar iqtisodiyotning moliya sohasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Bugungi kunda banklar iste'molchilar bilan o'zaro aloqada innovatsion texnologiyalardan faol foydalanmoqda, iste'molchilarning o'zi esa kraudfanding yoki jamoaviy moliyalashtirish kabi yangi moliyaviy mahsulotlarga talab yaratmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI.

Raqamli texnologiyalar kun tartibi va diagnostika bilan bog'liq nazariy, metodologik va amaliy jihatlar ayrim mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy ishlari orqali yoritilgan. Xususan, Mariano va boshqalar (2021) o'z tadqiqotida raqamli texnologiyalarni axborot va texnologiya ustuvor ta'siri ostida ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning rivojlanishini belgilovchi tushuncha sifatida ko'rib chiqadi. Ular taqdim etgan tizim quyidagilarni hisobga oluvchi xulq-atvorga oid determinantlarga asoslanadi: xulqiy, madaniy va ijtimoiy komponentlar. Shuningdek, Remeikiene va boshqalar (2021) tomonidan raqamli texnologiyalarni joriy etishga asoslangan tashkiliy yoki ijtimoiy o'zgarishlar tahlil qilingan bo'lib, mualliflar raqamli transformatsiyani inson tabiati, tafakkuri, turmush tarzi va boshqaruvdagi tub o'zgarish sifatida talqin qilishadi. Bunday tadqiqotlar raqamli texnologiyalarning mamlakat iqtisodiyotining istalgan sohasiga ta'sirini va xususiyatlarini hisobga oladi, biroq ular bevosita moliyaviy kichik tizimlarga qaratilmagan.

Yerina va boshqalar (2021) o'z tadqiqotida kiberxavfsizlik reytinglarini milliy kiberstrategiyalarning nisbiy kuchli va zaif jihatlarini aniqlovchi bir turdagi ko'rsatkich sifatida baholaydi. Shu bilan birga, mualliflar ushbu strategiyalarni qayta ko'rib chiqish, kiberhujumlardan himoyalaniшни kuchaytirish va kiberxavflarni boshqarishni yaxshilash zarurligini ta'kidlaydilar. Ular IT texnologiyalarning milliy ishlab chiqarishdagi hissasiga asoslangan yuqori iqtisodiy rivojlanish darajasiga ega bo'lgan davlatlar, geografik joylashuvdan qat'i nazar, raqamli xavfsizlik salohiyatining yuqoriligi bilan ajralib turishini isbotlaydi. Mualliflar Global Cybersecurity Index (GCI), axborot jamiyati rivojlanishi indeksleri (IDI, NRI, EGD) va yalpi ichki mahsulot hajmi (YAIM) jon boshiga o'rtasidagi



o'zaro bog'liqlikni ko'rsatgan holda, fuqarolik jamiyati va mamlakat iqtisodiyotining raqamli transformatsiyasi faqat axborot va kiberxavfsizlik ta'minlangandagina iqtisodiy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi omiliga aylanishini ta'kidlaydilar.

Bondarenko va boshqalar (2022) axborot xavfsizligini baholashda qo'llanilishi mumkin bo'lgan bir guruh indeksni ko'rib chiqadilar. Ular qatoriga quyidagilar kiradi: axborot-kompyuter texnologiyalari rivojlanish indeksi, global kiberxavfsizlik indeksi, tarmoqqa tayyorlik indeksi, milliy kiberxavfsizlik indeksi va mamlakatning raqamli rivojlanish darajasi. Mualliflar ushbu indekslar asosida mamlakatning raqamli salohiyati va kiberxavfsizlik indeksini hisoblashni taklif qiladilar.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda raqamli texnologiyalar ekologik va ijtimoiy muammolarni yumshatish hamda ularga qarshi kurashishda muhim vosita sifatida qaralmoqda (Dwivedi va boshqalar, 2022; Papagiannidis & Marikyan, 2022). Bunday qarash barqaror raqamli patentlar sonining keskin o'sishi va venchur kapital investitsiyalarining ortishi orqali ham tasdiqlanadi (Anderson & Caimi, 2022). Shuningdek, Shestack va boshqalar (2023) raqamli sohada raqamli kompetensiyalar va deskriptorlar masalasi alohida dolzarb ahamiyat kasb etayotganini ta'kidlaydi.

Ma'lumotlarni filtrlash natijasida aniqlanishicha, Scopus ilmiy-analitik ma'lumotlar bazasida moliya sektoridagi raqamli texnologiyalarga oid 9 086 ta ilmiy maqola mavjud. Misol uchun, Daud va boshqalar (2024) moliyaviy inklyuziya (keng qamrovli moliyaviy xizmatlardan foydalanish) hamda raqamli texnologiyalarning iqtisodiy o'sishga ta'sirini o'rganishadi. Mualliflar raqamli texnologiyalar moliyaviy inklyuziyani umuman yaxshilashi, moliyaviy xizmatlardan foydalanishdagi gender tafovutlarini kamaytirishi va bu orqali moliyaviy inklyuziyaning iqtisodiy o'sishga bo'lgan ijobiy ta'sirini kuchaytirishini isbotlaydilar. Biroq, bunday iqtisodiy sharoitda raqamli texnologiyalar bilan bog'liq xavflar haqida hech qanday fikr bildirilmagan.

Bas va boshqalar (2024) hamda Prokopenko va boshqalar (2023) tomonidan olib borilgan tadqiqot ham e'tiborga loyiq. Unda mualliflar Markaziy banklar raqamli valyutasi indeksi (CBDC indeksi), moliyaviy barqarorlik va raqamli aktivlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikka e'tibor qaratadilar. NFTlar (noan'anaviy raqamli aktivlar) aktivlar makonida alohida segmentni tashkil etuvchi va o'rtacha bog'liqlikka ega bo'lgan ob'ektlar sifatida talqin etiladi. Shuningdek, CBDClar va moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari o'rtasida ikki tomonlama (bidirectional) bog'liqlik mavjudligi aniqlangan.

Moliya sektoridagi raqamli texnologiyalarga boshqacha yondashuv Saud va boshqalar (2024) tomonidan taklif etilgan bo'lib, ular raqamli makonning madaniy dinamikasini tahlil qiladilar. Shuni ta'kidlash kerakki, mazkur tadqiqot juda tor ixtisoslashgan bo'lib, takliflar asosan virtual sohalarda yaxshi yo'naltirilgan yoshlarga qaratilgan va boshqa avlodlarga nisbatan cheklangan ta'sir doirasiga ega.

Shuningdek, COVID-19 pandemiyasi sharoitida moliya sektorining raqamli transformatsiyasi masalasiga ham alohida e'tibor qaratish lozim (Battisti va boshq., 2022; Zaban & Plaut, 2024). Ushbu ishlarning o'ziga xos jihati shundaki, ularning asosiy e'tibori faqat "pandemiya" yoki "urush" kabi favqulodda holatlardagi ish sharoitlarini o'rganishga qaratilgan.

Ghosh (2024) esa moliyaviy inklyuziya va barqaror kelajakni loyihalash bo'yicha tadqiqotlarni bibliometrik tahlil qilish orqali ushbu yo'nalishdagi ishlarga umumiy baho beradi. U umumiy so'z tahlili (keyword analysis) orqali ushbu sohadagi asosiy mavzularni aniqlaydi va bu orqali moliya sohasidagi raqamli tendensiyalarni yanada chuqurroq anglash imkonini beradi. Bu tahlil kelajakda moliyaviy raqamli texnologiyalar bo'yicha tadqiqotlar olib borish uchun aniq yo'nalishni belgilashga yordam beradi.

Ushbu tadqiqotning asosiy gipotezasi shuki, raqamli transformatsiyaga tezkor o'tish iqtisodiyotning moliyaviy sektorida ham ijobiy, ham salbiy oqibatlariga olib keladi. Fuqarolik jamiyati yuqori texnologiyalar taqdim etayotgan qulayliklardan voz kechishga tayyor emas, biroq ma'lumotlar xavfsizligi bilan bog'liq potentsial tahdidlarni yetarli darajada baholamaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Ushbu tadqiqotda korxonaning moliyaviy barqarorligini raqamli texnologiyalar orqali oshirish imkoniyatlari tizimli tahlil, solishtirma tahlil va tavsifiy yondashuvlar asosida o'rganildi. FinTech texnologiyalari (ERP, CRM, blokcheyn, sun'iy intellekt) joriy etilishi moliyaviy boshqaruv samaradorligiga qanday ta'sir qilishi nazariy va amaliy manbalar asosida baholandi. Shu bilan birga, xavf-xatarlarni baholash va ekspert mulohazalari orqali raqamlashtirish jarayonida yuzaga keladigan tahdidlar aniqlanib, ular bo'yicha aniq xulosalar chiqarildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Moliya ma'lumotlarining xavfsizligini milliy darajada boshqarishni tashkil etish har bir davlatning ixtiyoriga bog'liq bo'lib, asosan davlat darajasida mavjud bo'lgan huquqiy asoslar va tartibga solish tizimiga tayanadi. Bu borada axborot xavfsizligi bo'yicha mutaxassislar mavjudligi, moliyaviy ta'minot, shuningdek iqtisodiy va ichki



xavfsizlik bo'yicha milliy hamda strategik rejalarining mavjudligi mamlakatda samarali raqamli xavfsizlik tizimini shakllantirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

An'anaviy sohalarda raqamli texnologiyalarni joriy etishning yuqori sur'atlari hamda yangi raqamli segmentlarning shakllanishi sharoitida zamonaviy iqtisodiyotda texnologik, boshqaruv va biznes yondashuvlari bo'yicha intensiv transformatsiya jarayoni kechmoqda. Bunday sharoitda faqatgina makro- va mikroiqtisodiy tizimlarning raqamli ekotizimda barqaror rivojlanishi bilan bog'liq xavflar emas, balki ularning o'sib borayotgan kiberhujumlar va milliy xavfsizlikka tahdid soluvchi infratuzilmaviy zaifliklari bilan bog'liq xavflar ham sezilarli darajada ortmoqda.

Shu boisdan, iqtisodiyotning moliyaviy sektorini raqamlashtirish bilan bog'liq xavflarni aniqlash, ularni yuzaga kelish ehtimoli va mumkin bo'lgan zarar salohiyati darajasiga qarab tasniflash, korxonada ham, mamlakat miqyosida ham muhim ahamiyat kasb etadi (1-jadval).

1-jadval. Moliya sektorini raqamlashtirishdan kelib chiqadigan xavflarning xususiyatlari.

Xavf turi	Tavsifi	Risklari
Elektrga bog'liqlik va zaiflik	Qog'ozdagi ma'lumotlar yong'in, suv va boshqa jismoniy zararlarga nisbatan zaif edi. Ushbu zaiflik elektron ommaviy axborot vositalari uchun saqlanib qoldi va bir vaqtning o'zida butun ma'lumotlar bazalariga zarar etkazish xavfi qo'shildi. Ayniqsa, infratuzilmaga raketa hujumlari kontekstida	Stabilizatorlar bo'lmagan taqdirda, elektr energiyasining to'satdan uzilishi operatsion ma'lumotlarning yo'qolishiga va saqlangan ma'lumotlarning shikastlanishiga olib kelishi mumkin. Mahalliy tarmoqda etarli kirish huquqiga ega bo'lgan bitta kompyuter virusi bilan kasallangan tugun ham butun korxonani buzishi mumkin. Usb-stiklar va qattiq disklarda to'plangan ma'lumotlar odatda birdaniga yo'qoladi.
Risks Office 365	SharePoint Online, OneDrive va Microsoft Teams sizga korxonada bo'yab ma'lumotlarni almashish imkonini beradi. Vaqt o'tishi bilan Office 365 ommaviy havolalar to'plamiga va maxfiy ma'lumotlarga cheksiz kirishga aylanadi. Tashqi havolalar tarmoqdan tashqarida ma'lum foydalanuvchilarga kirishni ta'minlaydi	Mehmonlarga kirish va ommaviy havolalar orqali maxfiy ma'lumotlarni oshkor qilish xavfsizlikka jiddiy xavf tug'diradi. Microsoft Teams-dagi hamkorlik xaotikdir va Office 365-da shubhali faoliyatni aniqlash uchun keng qamrovli kirish huquqlari monitoringi va foydalanuvchi xatti-harakatlari tahlillari bilan birlashtirilishi kerak. Parolni qo'pol kuch va hisobga olish ma'lumotlarini soxtalashtirishning oldini olish uchun barcha xodimlar ko'p faktorli autentifikatsiyani yoqishlari kerak
DDoS hujumlari	Tarqatilgan xizmatni rad etish hujumi-bu ko'p sonli tashqi so'rovlar bilan hujum qilingan serverning ortiqcha yuklanishi. Bunga qarshi himoya qilish qiyin, chunki bunday so'rovlar haqiqiy foydalanuvchilarnikidan unchalik farq qilmaydi, lekin avtomatik ravishda amalga oshiriladi	Kompyuter resurslari maqsadli foydalanuvchilar uchun imkonsiz bo'lib, o'zaro ta'sirni imkonsiz qiladi va resurs egasining ishonchligiga ishonchni pasaytiradi. Aslida, u ko'plab o'rta raqobatchilar va tajovuzkor davlatlarning xaker guruhlari uchun mavjud, chunki u faqat ko'p sonli Internet tugunlari ustidan nazoratni talab qiladi
Foydalanuvchi va qurilma faoliyati	Foydalanuvchi va qurilma faoliyati bulutli va mahalliy fayl tizimlari, elektron pochta va SharePoint, perimetr va Active Directory telemetriyasi va tahdidlarni tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Varonis kabi dasturlar bulutli va mahalliy saqlashdagi foydalanuvchilar va ob'ektlarning xatti - harakatlarini kuzatib boradi va tahlil qiladi, ichki tahdidlarni aniqlaydi va ogohlantiradi	Ma'lumotlarga kirish yoki o'zgartirish yoki ma'lumotlarni o'zgartirish uchun ruxsatsiz urinishlar ko'pincha insayder tahdidlari, kiberhujumlar yoki zararli dasturlarning faolligini ko'rsatadi. Foydalanuvchi yoki qurilmaning g'ayrioddiy xatti-harakati potentsial hisobni egallash yoki ma'lumotlar buzilishini ko'rsatishi mumkin. Faol bo'lmagan foydalanuvchilardan yoki zararli IP-manzillarga ulanishlardan olingan ma'lumotlar ko'pincha faol kiberhujumni ko'rsatadi: tajovuzkorlar hisob yoki tizimga kirishga yoki ma'lumotlarni O'g'irlashga harakat qilmoqdalar



Amaliy dasturlash interfeyslari (API)	Zamonaviy apparat va dasturiy ta'minot tizimlari modulli bo'lib qolish uchun alohida va mustaqil bo'lgan ko'plab tizimlardan iborat. Shu bilan birga, tizimlar orasidagi potentsial ulanishlar soni ularning sonining kvadratidir-juda ko'p, shuning uchun integratsiyalar ko'pincha uchinchi tomon pudratchilari tomonidan ishlab chiqiladi va tizimlarning se-curity xususiyatlarini kamroq hisobga oladi	Ko'pincha, integratsiya jarayonida dasturga kiritilgan o'zgartirishlar dasturiy ta'minotning qayta manbalariga cheksiz kirish huquqiga ega. Rivojlanish vaqtini optimallashtirish va tejash uchun kiruvchi ma'lumotlar har doim ham yaxshilab tekshirilmaydi. Xususan, ma'lumotlar turlarining eskirgan spetsifikatsiyasi va qayta qat'iyilashirilishi tizimga qabul qilinadigan qiymatlarning kiritilishiga va uning ishlashida oldindan aytib bo'lmaydigan nosozliklarga olib kelishi mumkin. Va tokenlarning amal qilish muddati ham xavf ostida
Dasturiy ta'minot yechimlari	Dasturiy ta'minot ishlab chiquvchilari o'zlarining foydasiga ishlaydigan yashirin, hujjatsiz modifikatsiyalarni amalga oshirish qobiliyatiga ega. Ko'pincha, bu qaroqchilikning oldini olish yoki tezkor tuzatishlar kiritishga urinishdir, ammo barchasi ishlab chiquvchining har bir xodimining yaxlitligiga bog'liq. Ba'zida bunday funktsiyalar viruslarga yaqin	O'zbekistonning orqa eshiklari ruxsatsiz qayta kirish uchun oldindan o'ylab topilgan usullardir. Hatto foydalanuvchi tomonidan o'zgartirilmagan dastlabki parollar va oxirgi versiyada o'chirilmagan ba'zi disk raskadrovka funktsiyalari ham orqa eshik vazifasini bajarishi mumkin. Statistikani, telemetriyani, jurnallarni, axlatxonalarini va boshqalarni yig'ish uchun statistika funktsiyalari. umuman olganda maxfiy foydalanuvchi ma'lumotlari va ularning muayyan vaziyatdagi harakatlari bo'lishi mumkin
Shaxsni o'g'irlash, anonimlik, ijtimoiy muhandislik	Xizmat ko'rsatishning qulayligi va tezligi, shuningdek, maxfiylik, Internet - provayderlar, veb-saytlar va individual ilovalar shaxsan aniqlanadigan ma'lumot uchun qayta so'rovlarni kamaytiradi. Sun'iy intellekt texnologiyalari bizga haqiqiy odamlardan ajratish qiyin bo'lgan tasvirlar, ovozlar va harakatlarni yaratishga imkon beradi. Ayni paytda, hatto jo'natuvchining manzilini tekshirmasdan, tizim reklama vazirlarining ko'rsatmalariga rioya qilishga tayyorlik ham muammo bo'lib qolmoqda.	Hech bo'lmaganda xaker hujumi boshlangan kompyuterning rasmiy egasini kuzatish har doim ham mumkin emas. Agar foydalanuvchi beradi kamroq shaxsiy ma'lumot, oson, ularning nomidan bayonotlar yoki harakatlarni qilish uchun emas, va yana, oqish va shantaj xavfi katta. Ular manifatura qilingan boshiga - o'g'li shaxsini so'roq uchun ishlatiladigan emas, bilan gaplashib, yoki hatto video orqali ko'rib, va bu tajovuzkor yoki deepfake bo'lishi mumkin. Hatto chuqur soxta holda ham, barcha xodimlar tajovuzkorlarni farqlash va xavfli harakatlardan qochish uchun etarli kompyuter vakolatiga ega emaslar

Yuqori texnologiyalarga asoslangan kelajak fuqarolik jamiyatini kuchaytiradi hamda axborot va raqamli ma'lumotlar bilan ishlashda ijobiy va salbiy natijalarning yuzaga kelishini osonlashtiradi. Texnologiyalarning jadal rivojlanishi ma'lumotlar bilan ishlash uslubimizni tubdan o'zgartirdi, natijada aloqa, mehnat faoliyati va ko'ngilochar sohalarda yangi imkoniyatlar paydo bo'ldi. Biroq texnologiyalar takomillashgan sari ma'lumotlar xavfsizligiga tahdidlar ham ortib bormoqda.

Har qanday yangi texnologiya tez orada kiberfazodagi potentsial tahdidga aylanadi, bu esa tajovuzkorlarning axborot, moliya va boshqa muhim resurslarga hujum qilishiga sabab bo'ladi. Shu bois, hozirgi bosqichda raqamli xavfsizlik bo'yicha mutaxassislar faqat mavjud tahdidlarga emas, balki kelajakdagi xavf-xatarlar va tahdidlar tahliliga ham jiddiy e'tibor qaratishlari zarur.

Iqtisodiyotning moliya sektorida yuzaga kelayotgan xatarlarni chuqurroq o'rganish maqsadida, 2-jadvalda ma'lumotlarni boshqarish jarayonida tahdidlarning ta'sir darajasi aniqlab berilgan

2-jadval. Moliyaviy ma'lumotlarni boshqarishda tahdidga ta'sir darajasini aniqlash

Tahdidga ta'sir darajasi	Xususiyatlari	Texnologiya reytingi
A	Texnologiya tahdid landschaftiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, tubdan yangi hujumlar uchun imkoniyatlar yaratadi, yangi hujum yuzalarini yaratadi yoki mavjudlarini sezilarli darajada o'zgartiradi. Agar texnologiya kiber tahdidlardan himoya qilish uchun ishlatilishi mumkin bo'lsa va mavjud himoya usullaridan sezilarli ustunlikka ega bo'lsa, ta'sir yuqori deb baholanadi	Yuqori



B	Texnologiya tahdid landshaftiga ta'sir qiladi, tubdan yangi hujumlar yoki mudofaalarni amalga oshirishga imkon bermaydi, ammo mavjud hujumlar yoki mudofaa samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin, texnologiya tahdidga ta'sir qiladi, tubdan yangi hujumlar yoki mudofaalarni ta'minlamaydi, ammo mavjud hujumlar yoki mudofaalarning samaradorligini sezilarli darajada yaxshilaydi	O'rta
C	Texnologiya tahdid landshaftiga deyarli ta'sir qilmaydi va yangi tahdidlar yoki mudofaa usullarining paydo bo'lishiga ta'sir qilmaydi. Hujumlar yoki mudofaa usullari samaradorligini ozgina oshirishni ta'minlaydi	Past

Taqdim etilgan tahdidga ta'sir qilish darajasi texnologiyaning yetuklik cho'qqisiga chiqishi kutilayotganiga qarab, uni iqtisodiyotning turli sohalarida keng qo'llash imkonini beradigan uchta davrdan biriga bog'liq (2-jadval).

### 3-jadval. Raqamli texnologiyalardagi o'zgarishlarning ta'siri

Raqamli texnologiyalardagi o'zgarishlarning ta'siri	Yuqori	Orta	Past	Davri					
				2024-2025	2026-2029	2030-2032			
	Chuqur soxta, inson omillari xavfni boshqarish, haydovchisiz transport vositalari, xulq-atvor biometriyasi, masofaviy ish texnologiyalari, o'z shaxsingizni keltiring (BYOI), raqamli barmoq izlarini boshqarish	Aqlli nishonlar, bot sifatida sun'iy intellekt, sog'liqni saqlash pasporti, qurilmani identifikatsiyalashni boshqarish, professional video tahlil	VR / AR, 5G, ijtimoiy masofa va masofaviy ish texnologiyalari, blockchain	Ijtimoiy reyting, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bilan sun'iy intellekt, differentsial maxfiylik, raqamli egizaklar, sun'iy intellekt bo'yicha trening, proeksion telefoniya	Generativ sun'iy intellekt, bir yo'nalishli neyrokompyuter interfeysi, neyromorfik mikroelektronika, ko'p bulutli	Do'konlarni virtualizatsiya qilish, virtual tasvirlarni yaratish, yordamchilar, sheriklar	Kuchli sun'iy intellekt( AGI), kvant kompyuterlari, global intellekt, muayyan tibbiy sohalarida sun'iy intellekt, aholi avgustmentatsiyasi, ikki tomonlama neyrokompyuterlararo yuz	Axborotni saqlash uchun DNK, DNK gadjetlari, individual tibbiyot, raqamli egizaklar, narsalar Interneti, markazlashtirilmagan avtonom tashkilotlar	XR, 3D bioprinting, biologik parchalanadigan sensorlar, giper-shaxsiylashtirish, AI ijodkorligi XR, 3D bioprinting, biologik parchalanadigan sensorlar, giper-shaxs-alizatsiya, AI ijodkorligi

Moliya sektorida raqamli texnologiyalarning jadal joriy etilishi korxonalar uchun keng ko'lamli imkoniyatlarni ochmoqda. Bu texnologiyalar orqali moliyaviy jarayonlarni avtomatlashtirish, operatsion xarajatlarni kamaytirish, real vaqt rejimidagi monitoring va tahlillarni yo'lga qo'yish, shuningdek, investitsion qarorlarni aniqlik bilan qabul qilish mumkin bo'lmoqda. Shu bilan birga, ushbu transformatsion jarayonlar bilan bir qatorda, yangi shakldagi xavflar ham yuzaga kelmoqda.

Jadvalda keltirilganidek, axborotga asoslangan tahdidlar – masalan, kiberxavfsizlik buzilishi, noto'g'ri ma'lumotlar asosida qabul qilingan moliyaviy qarorlar, ma'lumotlar oqimi ustidan nazoratning susayishi – korxonaning moliyaviy barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, katta hajmdagi moliyaviy ma'lumotlar bilan ishlayotgan yirik korxonalar uchun bu xavflarning ehtimoli va salbiy ta'siri yuqoriligicha qolmoqda.

Shu sababli, raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayonida korxonalar rahbariyati quyidagi strategik choralarni ko'rishi lozim:

- Axborot xavfsizligi siyosatini shakllantirish va doimiy yangilab borish;
- Kiberxavflarni monitoring qilish va bashoratlash tizimlarini joriy etish;
- Moliyaviy ma'lumotlarni real vaqt rejimida kuzatib boruvchi raqamli platformalarni ishlatish;
- Xodimlarning raqamli savodxonligini oshirish va ularga xavfsizlik bo'yicha treninglar o'tkazish.

Umuman olganda, raqamli texnologiyalar korxonalarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda. Biroq ushbu vositalarning samaradorligini ta'minlash uchun ularning xavf jihatlari ham chuqur o'rganilishi, sinchkovlik bilan baholanishi va integratsiyalangan xavfsizlik siyosati asosida boshqarilishi lozim.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli moliyaviy texnologiyalar korxonalar uchun yangi davrni boshlab berdi: bu texnologiyalar moliyaviy boshqaruvni avtomatlashtirish, real vaqt rejimida moliyaviy oqimlarni monitoring qilish va strategik qarorlar



qabul qilishda aniqlikni oshirish imkonini bermoqda. Ayniqsa, ERP, CRM, blokcheyn, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar (Big Data) texnologiyalarining integratsiyasi orqali ichki moliyaviy muvozanatni saqlash, tashqi sheriklar bilan ishonchli aloqalarni mustahkamlash va umumiy moliyaviy barqarorlikni ta'minlash mumkin bo'ldi.

Shu bilan birga, maqolada ta'kidlanganidek, raqamlashtirish bilan bog'liq xavf-xatarlar ham mavjud. Jadval asosida aniqlangan texnologik va kiberxavfsizlikka oid tahdidlar – ayniqsa katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlovchi korxonalar uchun – moliyaviy barqarorlikka jiddiy putur yetkazishi mumkin. Bu xavflar, o'z navbatida, noto'g'ri ma'lumot asosida qaror qabul qilish, tizimdagi uzilishlar, ma'lumotlar oqishini keltirib chiqaradi va bu orqali ichki va tashqi ishonchlilikka salbiy ta'sir o'tkazadi.

Raqamli transformatsiya – bu faqat texnologik yangilanish emas, balki butun boshqaruv tizimi va xavfsizlik strategiyalarining qayta ko'rib chiqilishini talab etadigan kompleks jarayondir. Shunday ekan, bu o'zgarishlar korxonalarda raqamli xavfsizlik madaniyatini shakllantirishni ham talab etadi.

#### Takliflar

1. Axborot xavfsizligi siyosatini ishlab chiqish: Har bir korxonaga o'z faoliyatiga mos axborot xavfsizligi siyosatini ishlab chiqishi va bu siyosatni raqamli transformatsiya bosqichlariga moslab muntazam yangilab borishi lozim.

2. Kiberxavflarni baholash va monitoring tizimlari: Sun'iy intellekt va analitik platformalardan foydalanib, kiberxavflarni real vaqt rejimida aniqlash, baholash va oldini olish tizimlarini joriy etish zarur.

3. Xodimlarni tayyorlash va raqamli savodxonlikni oshirish: Korxonaga xodimlari, ayniqsa moliya va IT bo'limlari mutaxassislari raqamli texnologiyalar va xavfsizlik bo'yicha muntazam o'quv kurslari orqali tayyorlanishi kerak.

4. Ko'p faktorli autentifikatsiya va shifrlash tizimlari: Tashqi tizimlarga ulanishlar va ma'lumotlar almashinuvi xavfsizligini ta'minlash uchun ko'p bosqichli autentifikatsiya, kriptografik vositalar va xavfsiz API larni keng joriy etish lozim.

5. Risklarni prognozlash va transformatsiya xavfsizligini baholash metodikasini joriy etish: Yangi texnologiyalarni joriy etishdan avval, ularning xavf darajasi (A, B, C – ta'sir ko'lamini) va davriy ta'sirini baholovchi metodologiyalar asosida xulosa chiqarish amaliyoti yo'lga qo'yilishi kerak.

6. Moliyaviy jarayonlar monitoringi uchun avtomatlashtirilgan tizimlar: Moliya oqimini, daromad-xarajatlarni balansi va qarzdorlik darajasini doimiy nazorat qilish uchun integratsiyalashgan raqamli nazorat panellaridan foydalanish tavsiya etiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abad-Segura, E., Infante-Moro, A., González-Zamar, M.D., & López-Meneses, E. (2024). Influential factors for a secure perception of accounting management with blockchain technology. *Journal of Open Innovation: Technology, Market, and Complexity*, 100264. <https://doi.org/10.1016/j.joitmc.2024.100264>
2. Bas, T., Malki, I., & Sivaprasad, S. (2024). Connectedness between central bank digital currency index, financial stability and digital assets. *Journal of International Financial Markets, Institutions and Money*, 92, 101981. <https://doi.org/10.1016/j.intfin.2024.101981>
3. Battisti, E., Alfiero, S., & Leonidou, E. (2022). Remote working and digital transformation during the COVID-19 pandemic: Economic-financial impacts and psychological drivers for employees. *Journal of Business Research*, 150, 38–50. <https://doi.org/10.1016/j.jbusres.2022.06.010>
4. Bondarenko, S., Makeieva, O., Usachenko, O., Veklych, V., Arifkhodzhaieva, T., & Lerynyk, S. (2022). The Legal Mechanisms for Information Security in the context of Digitalization. *Journal of Information Technology Management*, 14(Special Issue), 25–58. <https://doi.org/10.22059/jitm.2022.88868>
5. Daud, S.N.M., & Trinugroho, I. (2024). Financial inclusion, digital technology, and economic growth: Further evidence. *Research in International Business and Finance*, 70, 102361. <https://doi.org/10.1016/j.ribaf.2024.102361>
6. Dwivedi, Y.K., et al. (2022). Climate change and COP26: Are digital technologies and information management part of the problem or the solution? *International Journal of Information Management*, 63, 102456. <https://doi.org/10.1016/j.ijinfomgt.2021.102456>
7. Ghosh, M. (2024). Financial inclusion studies bibliometric analysis: Projecting a sustainable future. *Sustainable Futures*, 100160. <https://doi.org/10.1016/j.sftr.2024.100160>
8. Javid, M., Haleem, A., Singh, R.P., Suman, R., & Khan, S. (2022). A review of Blockchain Technology applications for financial services. *BenchCouncil Transactions on Benchmarks, Standards and Evaluations*, 2(3), 100073. <https://doi.org/10.1016/j.tbench.2022.100073>
9. Mariano, E. B., Ferraz, D., & Gobbo, S. C. de O. (2021). The Human Development Index with Multiple Data Envelopment Analysis Approaches. *Social Indicators Research*, 157, 443–500. <https://doi.org/10.1007/s11205-021-02660-4>
10. Nambisan, S. (2017). Digital entrepreneurship: Toward a digital technology perspective of entrepreneurship. *Entrepreneurship Theory and Practice*, 41(6), 1029–1055. <https://doi.org/10.1111/etap.12254>
11. Remeikiene, R., Gasparyniene, L., Fedajev, A., & Vebraitė, V. (2021). The role of ICT development in boosting economic growth in transition economies. *Journal of International Studies*, 14(4), 9–22. <https://doi.org/10.14254/2071-8330.2022/14-4/1>
12. Zaban, R., & Plaut, P. (2024). The relationship between activities performed in the physical and digital spheres: Lessons learned from the COVID-19 pandemic. *Sustainable Cities and Society*, 106, 105370. <https://doi.org/10.1016/j.scs.2024.105370>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 5**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>